
BILASIZMI?



Bilasizmi?

18 yoshga to'lmagan shaxsni novvoy sifatida ishlatish mumkin emas

Hukumat qarori bilan (290-son, 14.07.2023y.) o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanilishi taqiqlangan og'ir ishlarning hamda zararli yoki xavfli mehnat sharoitlaridagi ishlarning ro'yxati tasdiqlandi

Ro'yxatga ko'ra, quyidagi ishlarda 18 yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanish taqiqlanadi, jumladan:

Ko'mirni boyitish apparatchisi;

Qimmatbaho metallar ishlab chiqarish apparatchisi;

Er osti kon ishchisi;

Tarkibida olmos bo'lgan konsentratlarni me'yoriga yetkazuvchi;

Qora metallar ishlab chiqarish nazoratchisi;

Olmoslar va o'ta qattiq materiallarni silliqlovchi;

Issiqlik tarmog'idagi uskunalarni ta'mirlash bo'yicha chilangar;

Neft va gaz qazib olish bo'yicha operator;

Gaz taqsimlash stansiyasi operatori;

Tibbiy preparatlarni dozalovchi;

Tibbiy mahsulotlarni taxlovchi;

Yuqori chastotali tok qurilmalarida payvandchi;

Gipsni qizdiruvchi;

Asfaltbetonchi;

Novvoy;

Xamir qoruvchi;

Go'sht mahsulotlarini kesuvchi;

Muzqaymoq tayyorlovchi;

Naqqosh;

Yo'lovchi tashuvchi poyezd mexanigi-brigadiri;

Tez tibbiy yordam stansiyalarining navbatchi tibbiyot xodimi.

Qodiraliyev Murodjon Yusubjonovich - Farg'ona shahar adliya bo'limi

